

**“Afrika materigining geografik o'rni va o'rganilish tarixi” mavzusini  
o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish**

***F.S.Meliboyeva***

*QDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari*

*kafedrasi katta o`qituvchisi*

***M. Mirzayeva - talaba***

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda o'qitish jarayonlarini turli didaktik o'yinlar bilan foydalanib qiziqarli va samarali o'tkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada 7-sinf geografiya darslarida “Afrika materigining geografik o'rni va o'rganilish tarixi” mavzusini o'qitishda “Gugurt donalari”, “Sehrli daraxt”, “Bu kim viktorinasi” kabi didaktik o'yinlar yordamida dars o'tish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Kalit so`zlar:** Didaktik o'yin, “Gugurt donalari” didaktik o'yini, “Sehrli daraxt” didaktik o'yini, “Bu kim viktorinasi” didaktik o'yini.

Yurtimiz mustaqilining dastlabki yillaridanoq boshqa sohalar kabi ta'lim sohasini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratildi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizni rivojlantirishning 2022-2026-yillar uchun mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida ham ta`lim tizimida amalga oshiriladigan ishlar to`g`risida to`xtalib o`tilgan.

Geografiyaga oid bilimlarni organish va o'zlashtirishda didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Didaktik oyinlardan foyfalanish o'quvchilarga mavzuni yaxshi eslab qolish va istiqbolda ham amalda qo'llay olish ko'nikmalarini shakillantiradi. Mazkur didaktik o'yinlardan turli sinflardagi deyarli barcha mavzularning mazmuniga mos tarzda tanlab foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan Umumta'lim maktablarining 7 sinf geografiya darsligidagi “Afrika materigining geografik o'rni va o'rganilish

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

tarixi” mavzusini o'qitishda “Sehrli daraxt”, “Bu kim viktorinasi”, “Gugurt donalari” kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin.

### **“Sehrli daraxt” didaktik o'yini**

Bu didaktik o'yindan o'tilgan mavzuni takrorlashda ,shuningdek yangi mavzu bayonidan so'ng mustahkamlash maqsadida foydalanish mumkin.Bunda doskaga yoki vatmn qog'ozga daraxt rasmi chiziladi va unga mavzu bo'yicha tayyorlab kelingan savollar yozilgan meva shaklidagi stikerlar yopishtiriladi. Bu didaktik o'yindan o'quvchilarni guruhlarga bo'lib yoki individual tarzda foydalanish mumkin.Bu didaktik o'yin o'quvchilar diqqatini dars jarayoniga jalg qilishga va mavzuga bo'lgan qiziqishini orttirishga yordam beradi.



1-rasm “Sehrli daraxt” didaktik o'yini chizmasi

### **“Sehrli daraxt” didaktik o'yinida quyidagi savollar beriladi.**

Afrika materigining qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?

Afrika materigining eng sharqiy nuqtasi qayer?

Afrika materigining eng g'arbiy nuqtasi qayer?

Afrika materigining eng shimoliy nuqtasi qayer?

Afrika materigining eng janubiy nuqtasi qayer?


Afrika materigi dastlab qanday nomlangan?

Afrika materigi dastlab kimlar o'rgangan?

### **“Bu kim viktorinasi”**

Bu didaktik o'yin Afrika materigini o'rganish tarixini yaxshi eslab qolish va kelajak istiqbolda ham qo'llay olishga yordam beradi.Bu didaktik o'yinda Afrika materigini o'rgangan sayyoh olimlarning rasmlari ko'rtasiladi. “Bu kim” savoli qo'yiladi .O'quvchilar bu sayyoh olimning kimligi va qilgan ishlari haqida ma'lumot


beradi.



1.



2.



3.



4.

**1. Bartolomeu Diash.** 1487- yilda Bartolomeu Diash Afrikaning janubidagi Yaxshi Umid burniga qadar Atlantika okeani sohillarini o‘rgandi.

**2. Vasko da Gama.** 1498- yilda dengizchi sayyoh Vasko da Gama Hindistonga dengiz yo‘lini ochdi.U Afrikaning janubiy qismini aylanib o‘tdi, materikning sharqiy qirg‘oqlari bo‘ylab suzib, yevropaliklardan birinchi bo‘lib Hindiston qirg‘oqlarigacha yetib bordi.

**3. David Livingston.** XIX asr o‘rtalarida taniqli ingliz tadqiqotchisi David Livingston materik ichkarisiga bir necha sayohatlar uyuştirdi. Bu sayyoh Janubiy Afrikani g‘arbdan sharqqa kesib o‘tdi. Zambezi daryosini tekshirdi, bu daryoda katta va go‘zal sharsharani topib, qirolicha Viktoriya nomi bilan atadi. Kongo daryosining yuqori oqimini, Nyasa ko‘lini , Kalaxari cho‘lini o‘rgandi.

**4. Ibn Battuta.** Afrika tabiatini, aholisining urf-odatlarini, xo‘jaligini o‘rganishda mashhur marokashlik sayyoh Ibn Battutaning alohida o‘rni bor. U Afrikaning shimoliy va sharqiy sohillarini, Nil havzasini, Sahroi Kabirning g‘arbiy qismini, Niger daryosining yuqori oqimidan o‘rta oqimigacha o‘rgangan. XV asr yevropaliklarning Afrikani o‘rganishida muhim bosqich bo‘lsa-da, unga qora kunlarni — qullar savdosini keltirdi.

### **“Gugurt donalari”**

Bu didaktik o‘yindan asosan o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi. Bunda o‘quvchilarga o‘zlari xohlagancha gugurt donalari olishlariga ruxsat beriladi. O‘quvchilar gugurt donalarini olgandan keyin har bir olgan gugurt donalariga mavzuga oid ma’lumot aytishadi. Bu o‘quvchilar bilan dars jarayonida individual ishslash va mavzuni xotirasida mukammal saqlab qolish imkonini beradi.



### **6-rasm. Gugurt donalar.**

Bu didaktik oyin shartiga ko'ra o'quvchilar bitta gugurt dona olsa bitta ikkita gugurt dona olsa ikkita va hokazo tarzda ma'lumodlar aytishlari kerak.

Masalan:

Afrika materigi 4ta yarimsharda joylashgan

Shimoliy va janubiy nuqtalari ekvatordan deyarli teng uzoqlikda joylashgan

Dastlab Liviya deb atalgan .

Nomi "afarik" qabilasi nomidan kelib chiqqan.

Tekislikdagi eng katta "Buyuk Afrika yer yorig'i mavjud.

Afrika qirg'oqlari eng kam parchalangan.

Eng issiq materik kabi ma'lumotlarni aytildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki yuqoridagi didaktik o'yinlardan foydalanib dars mashg'ulotlari tashkillanganda darsning sifati va samaradorligi yanada ortadi.

Ayniqsa “Sehrli daraxt” va “Gugurt donalari” didaktik o'yinlari barcha o'quvchilarni dars mashg'ulotiga jalb qilishga va yuqoridagi mavzuga qiziqtirishga yordam beradi.

Agar bu o'yinlardan guruhlarga bo'lib foydalanilsa sinf o'quvchilarida guruh bo'lib ahillikda ishlash va jamoada o'z fikrini mustaqil bayon etish ko'nikmalari shakllanadi.

Individual foydalanganda esa mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. “Bu kim viktorinasi” didaktik o'yini esa o'quvchilarga Afrika materigining o'r ganilish tarixi haqida nafaqat nazariy bilim olishga, balki sayyoҳ olimlarni suratlari bilan birga ko'rganda ularning qilgan ishlarini xotirasida uzoq muddat saqlanib qolishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. H.Vaxobov, N.R. Alimqulov, N.B. Sultonova „Geografiya o'qitish metodikasi”. Т 2020 у.
2. Бердиев, Файратжон Хасанбоевич, and Феруза Солижоновна Мелибоева. "СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТРАНСЧЕГАРАВИЙ МУАММОЛАРИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 29-31.
3. Мелибоева, Феруза Солижоновна, and Файратжон Хасанбоевич Бердиев. "СУВ ТАҚЧИЛЛИГИДА СУГОРИШ УЧУН ОҚАВА СУВИДАН ФОЙЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИНИ БАХОЛАШ." *Интернаука* 10-4 (2017): 31-34.
4. Мелибоева, Феруза Солижоновна. "ФАРГОНА ВОДИЙСИ СУВ РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 34-36.
5. Мелибаева, Феруза Солижановна, and Баходир Асамович Камалов. "Оценка возможности использования канализационных сточных вод для орошения при нехватке оросительной воды." *Europaische Fachhochschule* 1 (2016): 3-6.
6. Мелибаева, Ф. С. "Распространение инфекционных заболеваний в кишлаках юго-западной части Дангаринского района Ферганской области." *Материалы республиканской конференции “Актуальные вопросы охраны окружающей среды Узбекистана”*. Самарканд. 2013.
7. Meliboeva,F. S. "GEOGRAPHICAL FEATURES OF MANUFACTURING AND HUMAN HEALTH." *Экономика и социум* 2-1 (93) (2022): 73-76.